

ANDIJON VILOYATI OCH TUSLI BO'Z TUPROQLARI SHAROITIDA KANADA BAGRYANNIGI (CERCIS SANADENSIS) NING O'SIMLIGINI YETISHTIRISH

Umarov Bekzod Baxtiyorjon o'g'li¹

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
"Dehqonchilik va o'rmon meliorasiyasi" kafedrasasi assistenti

Isaqova Ozodaxon Numanovna²

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar
instituti magistranti

Jo'rayeva Bexruza Ismatillo qizi³

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar
instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7110137>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Kanada arg'uvoni haqida ilmiy maa'lumotlar berilgan. Xususan uning qaysi hududlarda ko'p tarqalganligi. Andijon viloyatida yetishtirishda iqlim sharoiti, tuproq qoplami, yog'in miqdori va vegetatsiya davri haqida tajribadan olingan ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Arg'uvon, o'sish davri, o'rmon maydonlari, barglari, manzarali darxt, bo'z tuproq sharoiti, mimozalar oilasi.

Аннотация: В статье представлена научная информация о канадской пурпуре, в частности о том, в каких регионах она широко распространена, приведены опытные сведения о климатических условиях, почвенном покрове, осадках и вегетационном периоде при возделывании в Андижанской области.

Ключевые слова: Пурпурник, вегетационный период, лесные массивы, листья, живописное дерево, состояние серозема, семейство мимозовых.

Annotation: This article provides scientific information about Canadian purple. In particular, in which regions it is widely distributed. Experienced information is provided about climate conditions, soil cover, rainfall and vegetation period during cultivation in Andijan region.

Key words: Purple, growth period, forest areas, leaves, scenic tree, gray soil condition, mimosa family.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillaridan o'rmon maydonlarimizni kengaytirish, aholi yashash joylari, bino va inshootlar atrofi, turli darajadagi yo'l atroflarini ko'kalamzorlashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 11 maydagi PQ-2966 [1], PF-5041 [2] sonli «O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» gi qaror va farmoniga muvofiq o'rmon ishlarining ko'p yillik istiqbolli strategiyasi ishlab chiqildi.

Mamlakatimizda barpo etilayotgan o'rmonlar va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirishda, ushbu tur ko'chatlarini yetkazib berish muhim ahamiyatga ega.

Dunyoda asosan Xitoy, Yaponiya, Eron, Yevropa va Amerika qit'alarida, Rossiya va MDH davlatlarida aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirishda, seleksion izlanishlar natijasida yangi navlar yaratish, daraxt turlari ko'kalamzorlashtirishda va ozuqa fondini ko'paytirishda foydalanish imkoniyatlari o'rganilib kelinmoqda, ularni urug'idan, vegetativ, payvandlash, qalamchadan va invitro usulida o'stirish usullari ishlab chiqilmoqda.

Ta'kidlash lozimki, arg'uvon bo'yicha ilg'or texnologiyaga asoslangan ilmiy kuzatishlar olib borish, yangi tajriba ma'lumotlarini tahlil qilish, ishlab chiqarishga ilmiy asoslangan iqtisodiy jihatdan samarali tavsiyalar berish alohida ahamiyatga ega.

Kanada arg'uvoni o'stirish bo'yicha dunyoning bir necha: AQSh, Kanada, Germaniya, Rossiya Federasiyasi va boshqa mamlakatlarda ilmiy izlanishlar olib borilgan. Plibin I.V.; Lapin P. I., Kaluskiy K. K., Kaluskaya O.N.; Shreter A.I., Panasyuk V.A. kabi olimlar ushbu tur bo'yicha bir qancha tadqiqotlar o'tkazishgan. Kanada arg'uvoni dukkakdoshlar oilasiga kiradi. O'zbekistonning ko'chalarida va parklarida ko'p ekiladi. Markaziy Osiyoning ob-havo sharoitiga yaxshi moslashgan bu daraxt dastlab juda tez o'sadi, 10 yil ichida uning bo'yi 8 - 10 m ga va 25 - 30 yoshlik daraxtning bo'yi 15 m ga yetadi, sho'r tuproqli yerlarda ham o'sa oladi. Har yili ko'p gullaydi, guli binafsha-pushti rang bo'ladi. Kanada arg'uvoni urug'i orqali ko'payadi

Ilmiy tadqiqot ishlari Andijon viloyati Andijon tumani "ANDIJON YO'L KO'KALAM" UK manzarali daraxtlar yetishtirish pitomnigida 2020-2021 yillarda o'tkazildi. Tadqiqot obyekti Andijon shahridan 35 km uzoqlikda Janubiy-sharq tomonda joylashgan.

Hududning iqlim ko'rsatkichlarini tahlil etish uchun "Andijon gidrometeorologiyasi" ma'lumotlaridan foydalanildi.

Andijonning iqlim sharoiti o'ziga xos bo'lib, tekislik qismidan tog' mintaqalari tomon havoning harorati pasayib boradi, atmosfera yog'in miqdorlari esa aksincha ko'payadi.

Tekislik va adir mintaqalarida qish oylarining harorati turg'unsizdir, ular yillar bo'yicha o'zgarib turadi. Viloyatda eng sovuq oy yanvar oyi bo'lib, bunda havoning harorati 0°C dan -28°C gacha bo'ladi. Eng issiq oy esa iyul hisoblanib, xarorat 27°C dan 45°C gacha yetadi. Viloyat hududida bo'ladigan atmosfera yog'inlarining miqdori ham turlichadir. Tekislik qismida bir yil davomida 261-

316 mm va tog' oldi adir mintaqalarida 366-435 mm, tog' mintaqalarida esa 700-895 mm gacha atmosfera yog'inlari bo'ladi.

Atmosfera yog'inlarining asosiy qismi tog' hududida qor tarzida, adir va tekislik mintaqalarida esa yomg'ir tarzida yuz beradi. Yog'ingarchilikning ko'p qismi qish va bahor oylariga to'g'ri keladi, ozchilik qismi kuz oylarida tushadi. Yoz oylarida esa deyarli yomg'ir bo'lmaydi. Kuzda iliq kunlar ancha uzoq davom etadi, havo harorati sekin pasayib boradi. Oktyabrning oxirida yoki noyabrning boshida harorat keskin pasayadi. Bu davrda yog'ingarchilik miqdori oshadi. "Andijon" meteorologik stansiyasi bo'yicha ob-havo harorati va o'rtacha yog'ingarchilik miqdori ma'lumotlari quyidagi -jadvalda keltirilgan.

1-jadval

"Andijon" meteorologik stansiyasi bo'yicha havo haroratining o'rtacha ko'p yillik va tadqiqot vaqtidagi ko'rsatkichlari

№	Oylar	O'rtacha havo harorati, °C			
		o'rtacha ko'p yillik	2019	2020	2021
1.	Yanvar	-0,6	5,5	5,1	2,0
2.	Fevral	1,9	5,3	8,0	0,4
3.	Mart	7,9	8,6	10,2	12,6
4.	Aprel	14,7	13,4	14,9	15,9
5.	May	20,1	18,4	21,7	20,0
6.	Iyun	24,9	24,1	26,5	27,2
7.	Iyul	27,0	27,5	27,2	28,7
8.	Avgust	25,0	26,5	26,4	25,5
9.	Sentyabr	19,6	21,3	21,7	22,5
10.	Oktyabr	12,8	17,0	16,1	
11.	Noyabr	6,6	10,4	8,5	
12.	Dekabr	1,9	-0,9	2,9	
	Yillik o'rtacha	13,5	14,8	15,8	15,3

Yuqori jadvaldan havo haroratining o'rtacha ko'p yillik ko'rsatkichlarga nisbatan yuqori bo'lganligini kuzatishimiz mumkin. bu esa so'ngi paytlarda havo haroratining ortib borayotganligidan dalolat beradi.

Arg'uvon turkumi dukkakdoshlar oilasiga mansub bo'lgan turkumlardan biridir. Dukkakdoshlar (*Fabaceae*) oilasi tarkibiga daraxt, buta va chala buta o'simliklar kiradi. Ularning belgisi quyidagilardan iborat: barglari murakkab patsimon tuzilgan bo'lib, yonbargchali, ketma-ket joylashadi. Gullari besh doirali, har xil

tuzilgan, tugunchasi ustki, bir uyali. Mevasi dukkak bo'lib, odatda ikki pallaga ajraladi. Ildizida tugunak bakteriyalar bor, ular havodagi erkin azotni o'zlashtiradi. Dukkakdoshlar oilasi uchta: mimosalar, sezalpinlar va kapalakgullilar kenja oilalariga bo'linadi.

Mimosalar kenja (*mimosoideae*) oilasi vakillarining belgilari quyidagilardan iborat: guli to'g'ri, gulqo'rg'oni 4-5 a'zoli, changchisi ko'p bo'lib, ingichka uzun ipchalarda joylashadi. Bu kenja oila tarkibida daraxtlardan ipak akatsiya va boshqa turlar bor.

Sezalpinlar kenja (*caesalpinioideae*) oilasi vakillarining guli noto'g'ri, gulqo'rg'oni 5 a'zoli, changchisi 10 ta bo'lib, erkin holda changlanadi. Oila tarkibida 100 dan ortiq turkum bor.

1-rasm.



Markaziy Osiyoda turkumning bitta turi Griffit arg'uvoni (*Cercis griffithii* Boiss.) tarqalgan. Bu daraxt o'simlik bo'lib balandligi 3-6 metrlar atrofida, novdasi silliq, qo'ng'ir rangda, barglari navbat bilan joylashadi, ular oddiy, yumaloq yoki buyraksimon bo'lib, uchi yumaloq yoki o'yiq, tubi yuraksimon, cheti tishchasiz, tuksiz, bo'yi 5-8 sm, eni 7—12 sm. Barg bandi 20—30 mm, 5-7 ta asosiy tomiri bor. Gullari binafsha rangda, to'pguli katta shingilcha hosil qiladi. Daraxti barg yozishdan oldin gullaydi, guli nektarli. Mevasi uzun, yassi dukkak, yuqori choki qanotchali bo'ladi.

2-rasm



Yogochi qattiq, og'ir, o'zakli bo'lib, o'zagi yashil-sarnq, tevaragi oq-pushti rangda. Bu daraxt urug'dap ko'payadi. Urug'i unib chiqish xususiyatini 2 yilgacha saqlaydi. Dekorativ daraxt sifatida Qrimda ko'p ekiladi. G'arbiy Tyanshanda va Pomir-Oloyda hamda Kopetdog'da yovvoyi holda tarqalgan. Sovuqdan qisman zararlanadi. Issiqqa, qurg'oqchilikka juda chidamli.

Bulardan tashqari oddiy arg'uvon (*Cercis sillguastrum* L.) ham ko'kalamzorlashtirish maqsadlarida ko'plab ekiladi.

Oddiy arg'uvon – *Cercis siliquastrum* bo'yi 10 metrgacha yetadigan daraxt, tanasi notekis, ko'pincha qiyshiq. Barglari yarim doira shaklida, butun yoki yuqorida biroz chuqurli, terili, uzunligi 5 – 8 sm, eni 7-12 sm, yalong'och yuqori qismi yashil rangli, pastki qismi zangori rangli. Gulchalari pushtirang to'q qizil rangli, uzunligi 1,8 – 2 sm, novdalarida dasta shaklida joylashgan, hidsiz. Barglari yozilmasdan mart – aprelda gullaydi. Mevasi jigarrang, dukkakli, butun qish davomida daraxtda qoladi. Nisbatan sekin o'sadi.

Qurg'oqchilikka juda chidamli o'simlik. Uning to'q – yashil barglari jazirama issiq oylarida ham o'zining ko'rinishini yaxshi saqlaydi.

Tuproqqa talabchan emas. Quruq toshloq tuproqda, hatto ohakli tuproqda ham yaxshi o'sadi. Sovuqqa chidamli. Qisqa muddatli -18 -20 c sovuqqa chidaydi. Nektarga boy. Urug'lari yoki qalamchalarini parxish qilib ham ko'paytirish xususiyatiga ega.

Kanada arg'uvonining yuqoridagi morfologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda uni turli joylarda o'stirish mumkin.

Barchamizga ayonki, hozirda eng katta ekologik muammolardan biri bu havoning ifloslarish darajasining ko'tarilib ketganidir. Shahar va sanoat markazlarida havo ko'pincha gaz, chang, zararli mikroorganizmlar bilan

ifloslangan joylarda meva daraxtlarining o'rne ayniqsa katta. O'rmonda 1 m³ havo tarkibida 490 ta bakteriya bo'lsa, katta shaharlar havosining 1m³ da 36000 ta bakteriya bo'ladi. Bir gektar bog'dagi daraxtlar yozda kuniga 8 kg karbonat anhidrid gazi yutadi, buncha gazni esa 200 kishi nafas olganda chiqaradi. Bitta katta daraxt kuniga 2 kg ga yaqin kislorod ajratadi. Andijon yo'llari yoqasidagi daraxtlar o'tkinchi avtomashinalardan chiqadigan karbonad anhidrid gazining 30% gacha qismini yutadi. Katta shaharlar havosining 100 m² maydonida har oyda 1 kg ga, botanika bog'i bor joyda esa 300 g ga yaqin ifloslangan moddalar to'planadi. Shaharlarda 1 gektar yerdagi daraxtlar kuniga o'rtacha 150 kg yoki yiliga 546 ga yaqin havodagi changni o'rtacha konsentratsiyasi ochiq joydagiga qaraganda yozda 40% qishda esa 35-37% ham bo'ladi. Kanada arg'uvoni daraxti esa changni va zararli gazlarni o'zida ushlab qolish xususiyatiga ega daraxt hisoblanadi.

Uning xususiyatlaridan biri, uning kasallik va zararkunandalariga yuqori darajada qarshilik ko'rsatishidir. 30 xil zararkunandalar kanada arg'uvoni daraxtiga faqat 4 ta turi unga yetarli darajada zarar yetkazishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mirziyoyev Sh. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-maydagi «O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» gi PQ-2966 sonli qarori.
2. Mirziyoyev Sh. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-maydagi «O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» gi PF-5041 sonli farmoni.
3. Do'saxmetov A.O. Ko'kalamzorlashtirish. Ma'ruza matnlari, 2001.
4. Do'saxmetov A.O., Xoshimov K.X. - Metodicheskiye ukazaniya po ozeleneniyu naseleennykh mest, Tashkent, 1993g.
5. Drevesniye porodi mira, t. 2. M.: Lesnaya promishlennost, 1982, s.
6. Drobov V. P. Drevesnaya i kustarnikovaya rastitelnost Tashkentskogo oazisa. - Byul. SAGU, №18,1935, s. 35.
7. Xonazarov A.A. O'rmonchilar uchun qo'llanma. T. 1999.

Internet saytlari

1. www.uniquegarden.ru
2. www.agropark.ru
3. <http://meteo.iiz/r^/2006/08/16Mmiat-tasmcent.html>
4. <http://ru.wikipedia.org/wiki/>